



TIJORAT BANKLARINING KREDIT SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISHNING ILMIY NAZARIY ASOSLARI

Jo'raboyev Shavkatjon Saydulla o'g'li
Bank-moliya akademiyasi magistranti

Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda tijorat banklari kreditlari katta rol o'ynaydi. Aynan bank kreditlari qaysi soha va tarmoqlarga yo'naltirilsa, o'sha soha yoki tarmoq rivojlanadi. Shu bilan birga tijorat banklari kreditlaridan tashkil topgan kredit portfeli barqarorligini ta'minlash va ushbu portfeli optimal boshqarish orqali bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash mumkin. Chunki tijorat banklari moliyaviy resurslarining katta qismi kreditlarga yo'naltirilganligi uchun undan ko'rildigan risklar ham yuqoridir.

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish uchun xukumatimiz tomonidan oxirgi yillarda ko'plab chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasida ham iqtisodiy rivojlanish sohasiga katta e'tibor berilib muhim maqsadlarni oldiga qo'ygan. Ushbu maqsadlardan biri mamlakatimizning iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni — 1,6 baravar va 2030 yilga borib aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadni 4 ming AQSh dollaridan oshirish hamda «daromadi o'rtachadan yuqori bo'lган davlatlar» qatoriga kirish uchun zamin yaratish asoslangan. Ushbu maqsadlarga erishish yo'lidi makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va yillik inflyatsiya darajasini 2023 yilgacha bosqichma-bosqich 5 foizgacha pasaytirish; davlat byudjeti taqchilligini qisqartirish va 2023 yildan yalpi ichki mahsulotga nisbatan uning 3 foizdan oshib ketmasligini ta'minlash; har bir tuman byudjetining kamida 5 foizini «Fuqarolar byudjeti» dasturi doirasida aholining takliflari asosida eng dolzarb muammolarni yechishga sarflashni tashkil qilish; davlat qarzini boshqarishda yiliga yangi jalb qilingan tashqi qarz miqdori 4,5 milliard AQSh dollaridan oshib ketmasligini ta'minlash zarurligi belgalangan¹.

Bank krediti respublika iqtisodiyotida muhim o'r'in tutishi o'z - o'zidan aniq. U jismoniy va yuridik shaxslar moddiy texnika bazasini n mustahkamlashga ko'maklashib, asosiy va oborot ishlab chiqarish fondlarini to'zish, tiklash va ko'paytirish manbai bo'lib xizmat qiladi. Korxonalar va tashkilotlarga o'z mablag'lari bilan cheklanib qolmaslik, yangi pul mablag'larini xo'jalik oborotiga

¹ 1. O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-580 Qonuni, 2019 yil 7 noyabrь.



kiritish imkonini beradi va shu bilan ishlab chiqarishning o'sishi va jadallahishi uchun zarur iqtisodiy zamin yaratadi.

Banklar o'z navbatida, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida qo'shimcha qarz mablag'lari yuzaga kelishining asosiy manbai bo'lib, ishlab chiqarish jarayonini qayta to'zilmalash, faol iqtisodiy siyosat yuritish, tadbirkorlikni rivojlantirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun qo'shimcha mablag'larni jalgilishga yordam beradi.

Kreditlashni tashkil etish kredit munosabatlарining ikki sub'ekti –bank (qarz beruvchi) va mijoz (qarz oluvchi) ning o'zaro majburiyatları hamda manfaatlarini uyg'unlashtirishni nazarda tutadi. Tijorat banklari tomonidan kredit operatsiyalarini to'la-to'kis olib borish ular tomonidan kredit siyosatining qay darajada to'zilganligiga bog'liq. Har bir bank siyosiy, iqtisodiy, tashkiliy va boshqa jihatlarini hisobga olgan holda o'z kredit siyosatini shakllantirishi bank kreditlashining muhim jihatni hisoblanadi.

Bu kreditlarni boshqarishning asosi hisoblanadi. Bank o'zining siyosiy, iqtisodiy, tashkiliy va boshqa jihatlarini hisobga olgan holda kredit siyosatini aniq belgilab olishi boshqaruvi organlari tomonidan belgilangan standartlarga riosa qilish va foydali kreditlar berishni ta'minlaydi. Bankning kredit siyosati bank boshqaruvchilari va kredit inspektorlariga kredit berish to'g'risida aniq qaror qabul qilish va bank kredit portfeli tarkibini to'g'ri tanlashda amal qilinishi kerak bo'lgan asosiy yo'nalishlarni beradi. Bank kredit portfelining tarkibi uning kredit siyosatini o'zida aks ettirishi kerak. Aks holda, bank kredit siyosatining samarali qo'llanishi ta'minlanmaydi va bank boshqaruvi yuqori organlari yoki uni qayta ko'rib chiqishlari, yoki uning qo'llanilishi bo'yicha chora - tadbirlar ko'rishlariga to'g'ri keladi.

Tijorat banklarining kredit taqdim etishdagi asosiy vazifasi - omonatchilarning pullarini kimga ishonib topshirish mumkinligini hal etishdan iborat. Bu faoliyat o'ta muhim va o'ta ta'sirchan jarayon bo'lib, uni muvaffaqiyatli amalga oshirish sarmoya to'zilmasidagi leverajni jiddiy oshirish imkonini beradi. Bank kreditlarni qachon, kimga va qanday shartlarda berishini aniq belgilab olishi kerak.

Bank qanday kreditlar, qancha miqdorda, kimga, qaysi sharoitlar bilan berilishini xal qilishi zarur. Biznesning shunday turlari borki, bank kredit bera turib ular bo'yicha qiyin ahvolga tushib qolishi mumkin. Shuning uchun har bir faoliyat risk bilan bog'lik yekanligini esdan chiqarmaslik lozim. Bankning kredit siyosati uning faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavfli holatlarning oldini olishga, buning uchun depozitlar va kreditlar o'rtasidagi nisbatning, bank majburiyatları bilan kapitali o'rtasidagi va boshka ko'rsatkichlarning mebyorida bo'lishini taqzoza yetadi. Oqilona kredit siyosati beriladigan kreditlarning Oqilona kredit siyosati bank kredit portfeli sifatining oshishiga olib keladi. Tegishli ravishda, kredit siyosatining maqsadi huquqiy tartibga solish



diapazoni, mablag' olish imkoniyati, eng yuqori risk darajasi, ssuda portfeli balansi, muddatlar bo'yicha majburiyatlar va aktivlar tuzilmasini hisobga olishi kerak.

Bank kredit siyosatining mohiyati va mazmunini tushunish uchun avvalambor siyosat degan tushunchaga ta'rif berish kerak bo'ladi. Siyosat yunoncha «politike» so'zidan olingan bo'lib «Davlatni boshqarish san'ati» degan ma'noni bildiradi odatda, ijtimoiy faoliyat sifatida talqin qilinadi.

Siyosat - bu bog'liq harakatlarni amalga oshirish usuli bo'lib, bunda printsiplar tegishli siyosatni aniqlash va uni amalga oshirish usullarining asosi sifatida qatnashadi./Siyosiy ta'sir ob'ekti hisoblangan ijtimoiy munosabatlar sohasiga bog'liq ravishda, iqtisodiy siyosat, ijtimoiy, madaniy, texnik va boshqa siyosat to'g'risida gapirish mumkin. Kredit siyosati - bu bank tomonidan uning faoliyatida o'tkaziladigan siyosat keng spektrining faqatgina bir qirrasi hisoblanadi. Bir guruh rus olimlari kredit siyosatini quyidagicha ta'riflaydilar: «Kredit siyosati - bankning kredit operatsiyalari sohasidagi strategiyasi va taktikasidir». Kredit siyosati talqiniga bunday yondashuvni hozirgi g'arb adabiyotida ham

uchratish mumkin. Misol uchun, Jahon bankingin N. Bruk tahriri ostidagi nashrida quyidagilarni ko'rishimiz mumkin: «Siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish tashkiliy ehtiyojlar, qoidalar, qonunlar va boshqarish falsafasining integratsiyasini bildiradi. Bu korporativ madaniyatning o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Siyosatni ishlab chiqishda bank imidji mustahkamlanadi va kelajakdagi natijalarga asos qo'yiladi. Aniq belgilab olingan siyosatga ehtiyoj bankning kengayishi, detsentralizatsiyalashuvi va mustaqilligining o'sishi bilan ortib boradi. Bank siyosati kreditlash, qimmatli qog'ozlar va sho"ba kompaniyalariga investitsiyalar, kapital qo'yilmalarni moliyalashtirishga odatda asosiy funktsiyalarni qamrab oladi:

- xarajatlar;
- personal;
- ichki nazorat va moliyaviy boshqaruv.

Siyosatni ishlab chiqish ko'p hollarda tarmoq siyosatiga, an'analar v ahbarlar kengashi» boshqaruvchilarining takliflariga asoslanadi».

Kredit siyosatining yuqorida keltirilgan ta'riflari bizga hozirgi zamon iqtisodiy adabiyotida bu tushunchaning turli talqini mavjudligi to'g'risida xulosa chiqarishga imkon beradi, bu esa o'z navbatida kredit siyosatining mohiyatini aniqlash zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Panova G.S. shunday deydi: «Avvalambor, kredit siyosatini iqtisodiy siyosat sifatida belgilab olish lozim. Ammo moliyaviy, narx, soliq, foiz va iqtisodiy siyosatning boshqa ko'rinishlaridan farqli ravishda kredit siyosati

uni iqtisodiy siyosatni tashkil etadigan elementlar umumiy tizimidan ajratib turadigan o'zining ma'lum bir maxsus belgilariga ega. Kredit siyosatining



muhim tomoni shuki, kredit siyosati - bu kreditning harakati bilan bog'liq siyosat hisoblanadi».

Bank kredit va depozit siyosati bir asosga ega va bir medalning ikki tomoni kabi hisoblanadi. Kredit va depozit siyosatining o'tkazilishi bir maqsadni ko'zlaydi – bankning ishonchliligi va stabilligini ushlab turgan holda uning daromadlarini maksimallashtirishdan iborat. Muvozanat nuqtasi bo'lib bank likvidligi xizmat qiladi.

Shuning uchun, bizning fikrimizcha, tijorat bankining kredit siyosatini keng ma'noda, uning depozit siyosatini hisobga olgan holda ko'rib chiqish lozim. «Kredit siyosati – bu kredit berish borasida bo'lgani kabi, uni olish borasidagi ham siyosatdir».

Shunday qilib, kreditni iqtisodiy kategoriya sifatida boshqarish darajasida depozitlarni qaytarish asosida jalb qilish va ssudalar berish bo'yicha siyosat bir jarayonning ikki tarafi hisoblanadi.

Haqiqatdan, amaliyotda banklar (markaziy va tijorat banklari) pul, kredit, foiz, valyuta siyosatini olib boradi. Shu bilan birga shuni aytib o'tish joizki, kredit siyosati - bu turli kreditorlarning siyosatidir.

1.1-jadval

Bank siyosati va uning tarkibiy qismlari

- Depozit siyosat.
- Kredit siyosati.
- Bank mijozlariga hisob kassa xizmatlarini ko'rsatishni tashkil etish sohasidagi siyosat.
- Foiz siyosati.
- Valyuta siyosati.
- Alohida bank operatsiyalari va xizmatlarini o'tkazish bo'yicha siyosat.
- Bank risklarini boshqarish sohasidagi siyosat.
- Bank foydaliligi, rentabelligiga nisbatan siyosat.
- Xodimlarni boshqarish bo'yicha siyosat.
- Raqiblarga nisbatan siyosat va x.k.

Shunday qilib, umuman olganda, bank siyosatining ajralmas qismi bo'lgani holda, tijorat bankining kredit siyosati alohida emas, balki bank siyosatining barcha elementlari ta'siri, bog'liqligini hisobga olgan holda qaralishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-580 Qonuni, 2019 yil 7 noyabrь.



2. O'zbekiston Respublikasining "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi O'RQ-578 Qonuni, 2019 yil 7 noyabrb.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 30 iyuldag'i "Koronavirus pandemiysi davrida ijtimoiy himoyaga va yordamga muhtoj aholi qatlamlarini moddiy qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6038-sonli Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydag'i "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-sonli Farmoni.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 yanvardagi "Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va iqtisodiy siyosat samaradorligini oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5614-sonli Farmoni.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentyabrdagi "2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5544-sonli Farmoni